

NASIMXON RAHMONOVNING ADABIY-ILMIY QARASHLARI**Karshiyeva Shoxsanam Abdurashidovna****GulDU tayanch doktoranti,****Tel. (+99899) 530 0301****E-mail: qarshiyeva1989@mail.ru****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20807290>**

Annotatsiya: Maqolada Nasimxon Rahmonovning ilmiy faoliyati, dunyoviy-falsafiy, adabiy-ilmiy qarashlari va ularning manbalari va tadriji haqida atroflicha mulohazalar berildi.

Kalit soʻzlar: Nasimxon Rahmonov, qadimgi yozma yodgorliklar, tilshunoslik, oʻzbek adabiyoti, “Toshga bitilgan kitoblar”, “Turk xoqonligi”, “Oʻzbek adabiyotini davrlashtirish masalalari”.

Oʻzbekistonda qadimgi yozma yodgorliklarning oʻrganilishida professor Nasimxon Rahmonovning xizmatlari katta. Olim talabalik yillarida tilshunoslik sohasiga mehr qoʻyib, bu yoʻnalishdagi kitoblarni koʻp mutolaa qilgan va 1977-yilda Fargʻonaning Buvayda tumanidan Toshkentga koʻchib kelgan. Garchi yosh izlanuvchining ilk maqolasi “Oʻzbek tili va adabiyoti” jurnalida “Ot kesimda zamon koʻrsatkichi” nomi bilan chop etilgan boʻlsa-da, keyinchalik adabiyotimiz ibtidosi boʻlgan qadimgi yozma yodgorliklarning mohiyati, tili va madaniyatini oʻrganishda yetakchilik qildi. Dunyo turkologlari faoliyati va ularning asarlari yuzasidan yetarli bilimga ega boʻlgan olim oʻz izlanishlari va adabiy-ilmiy qarashlarini umumlashtirib “Toshga bitilgan kitoblar” (1983), “Inson ruhining sadosi” (1986), “Qadimiy hikmatlar” (1987), “Kultigin yodnomasi poetikasi” (“Oʻlmas obidalar” tarkibida 1989, 92 b), “Bitiglar olamida” (1990), “Koʻhna bitigtoshlar” (1991), “Turk xoqonligi” (1992), “Ruhiyatdagi nur murodi” (2002), “Oʻzbekistonning koʻhna turkiy-run yozuvlari” (2003) nomli kitoblarini yozdi. 2009-yilda “Oʻzbek tili tarixi” darsligini yaratdi.

Professor Nasimxon Rahmonov “Kul tigin yodnomasida alliteratsiya” (1980), “Kul tigin yodnomasida adabiy etiket” (1981), “Kultigin yodnomasida badiiy sanʼatlar” (1981), “Yozuv - tarix sadosi” (1983), “Irq bitigi” (1985), “Irq bitigi va skiflar madaniyati” (1985), “Turkiy yozma adabiyot va ogʻzaki epik anʼanalar munosabatiga doir” (1985), “Qadimgi turkiy yozuvlar” (1986), “Toshga bitilgan yozuvlar” (1986), “Bitiglar shahodati” (1991), “Bitiglar madaniyatimizning nishonasi” (1992), “Toshga bitilgan qonunlar” (1997) nomli oʻnlab maqolalar ham yaratdi. Bu kitob va maqolalarda qadimgi yozma yodgorliklarning mazmun-mohiyati, badiiyati va til xususiyatlari, shakl-shamoyiliga oid qimmatli fikrlar va maʼlumotlar berilgan. Olim Nasimxon Rahmonov 1984-yilda “Kul tigin yodnomasi poetikasi” nomli nomzodlik, 1991-yilda “Urxun-Yenisey yozma yodgorliklari va turkiy eposlar munosabati” nomli doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi.

Professor Nasimxon Rahmonovning 1983-yil “Toshga bitilgan kitoblar” asarida yozilishicha XVIII asrda Sibrga arxeologik tadqiqodlar uchun borgan D.E.Missershimdt boshchiligidagi ekspeditsiyaning aʼzolaridan biri Karl Shulʼman allaqanday yozuvlar bitilgan toshlarni topadi va ularning rasmlarini chizib oladi. Ayrim olimlar tomonidan kelʼt yozuvi deb taxmin qilingan bu yozuv keyinchalik hammaga maʼlum boʻlgan Oʻrxun-Enasoy yozuvlari edi. Shuningdek kitobda har uchala bitig – Yenisey, Talas, Oʻrxun bitiglarining yozuv shakli bir-biriga oʻxshash ekanligi, lekin turli turkiy qabilalarning til xususiyati, ijtimoiy-tarixiy munosabatlari bu bitiglarda oʻz aksini topganligi taʼkidlanadi. Kitobda bitiglarining xuddi arab yozuvi kabi oʻngdan chapga qarab

yozilishi, har bir tovush yoki tovushlar birikmasi maxsus harflar bilan ko'rsatilib ulanmagan holda alohida-alohida yozilishi, unli harflar ko'p hollarda yozilmasligi, so'zlarni bir biridan ajratish uchun ikki nuqta (:) qo'yilishi kabi O'rxun-Enasoy yozuvlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, O'rxun bitig'lari ichida Kul tigin, Bilga xoqon, To'nyuquq bitig'lariga alohida alohida to'xtalib bitig'larning tuzilishi, hajmi, saqlanish holatidan tashqari voqealar tafsiloti, badiiy xususiyati, turli tillarga tarjima qilinganligi, fan tadqiqodchilari – arxeolog, tarixchi, geograf, tilshunos va adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilganligi yuzasidan izchil mulohazalar keltiriladi. Bu bitig'larning qadimgi turkiy xalqlarning madaniy yodgorligi sifatida o'z davridagi qabilalarning hayoti, turmush tarzi, boshqa xalqlar bilan ijtimoiy-siyosiy munosabatlari, shuningdek, yozuv madaniyati va til xususiyatlari, adabiy jarayonlari haqida ma'lumot beruvchi asosiy qadimgi yozma manba sifatida ahamiyatli ekanligi isbot qilinadi. “Toshga bitilgan kitoblar”dagi har uch bitigning tahlilidan anglashiladiki, turkiy xalqlardagi mukammal ada- biyotning o'rganilishini XI asrdan emas, VII-VIII asrlardan boshlash lozim. Bu esa adabiyotshunoslar oldiga yangi vazifalarni qo'yishi muallif tomonidan ta'kidlangan.

1993-yil olimning “Turk xoqonligi” kitobi A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti tomonidan chop etildi. Professor onasi Fotima Mamatqul qizining porloq xotirasiga bag'ishlab yozgan ushbu kitobida Turk xoqonligining tarix sahnasida paydo bo'lishi, rivoji va tanazzuli, shuningdek jahon madaniyatiga qo'shgan hissasi, dunyoning boshqa joylarida tashkil topgan xun davlatlari – G'arbiy (Ovrupo) xun imperatorligi, Oq xun imperatorligi, Tabg'ach davlati haqida yozadi. Kitob Midiya shohi Kayxisrav tomonidan Alp Er To'ngaga “sadoqat”ni bildirish maqsadida tashkil etilgan ziyofatning tasviri bilan boshlanadi. Kayxisravning maqsadi aniq: dunyoga mashhur, botir va yengilmas turk xoqoniga hujum qilib uni yo'q qilish, qudratli davlatga barham berish bo'ladi. Zahar solingan qadahni ko'targan xoqon nobud bo'ladi. Kelishuvga binoan, Kayxisrav sarkardalari turk sarkadalarini o'ldirib yuboradi, sak turklari har tomonga tarqalib ketadi. Milloddan avvalgi 626-yilda ularning bir qismi Sharqiy Anatóliyaga qochib boradi. Bu yerlarga kelib o'rnashgan sak turklari qarluq, g'ur, bajnok (pecheneg) urug'lari edi. Turklar tarixida birinchi davlatning tashkil topishi shu yillarga to'g'ri keladi. tarixda bu davlat sak (iskif) turk davlati deb nom oldi. Bu davlatning asoschisi Alp Er To'nga bo'ldi. Sak turk davlati milloddan oldingi yettinchi-eramizning ikkinchi yuz yilliklarida yashadi. Yovuz Kayxisrav o'ylaganidek, Afrosiyob – Alp Er To'nganing nomi tarix kitoblaridan o'chib ketmadi. Mahmud Qoshg'ariy “Devon-u lug'atit turk” asarini yozish maqsadida turli turkiy xalqlar yashaydigan joylarda bo'lar ekan, xalq og'zidan Alp Er To'ngaga bag'ishlangan marsiyaning parchalarini yozib oladi. Abdurauf Fitrat bu marsiyani 1927-yildagi “Eng eski turk adabiyoti namunalari” kitobiga kiritgan. Professor Nasimxon Rahmonov bu parchani qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek adabiy tiliga o'girib, she'riy talablarni saqlamasada, mazmunga putur yetkazmaslikka erishadi:

Alp Er To'nga o'ldimi,
 Yomon dunyo qoldimi,
 Zamona o'chin oldimi,
 Endi yurak yirtilur...

Nasimxon Rahmonovning taniqli folklorshunos, tilshushunos, madaniyatshunos va turkolog bo'lib tanilishiga sabab bo'lgan omillardan biri uning o'ziga xos adabiy-estetik qarashlaridir. Bo'lajak olimning dunyoqarashi, adabiy shaxsiyati, ilmiy-estetik nuqtai nazari o'zbek xalq og'zaki va yozma adabiyoti, o'zbek va dunyo tilshunosligi, musulmon Sharqi madaniy va ma'naviy merosi asosida shakllandi va kamol topdi. E'tiborlisi shundaki, Nasimxon Rahmonovning e'tiqodi va o'ziga

xos adabiy-estetik qarashlari bugunga qadar takomillashib o'sib-ulg'ayib, yangilanib bormoqda. Bu takomil uning ilmiy tadqiqotlarida mulohazalar izchilligi, xulosalar aniqligini ta'minladi. Mustahkam e'tiqod va va ilmiy qarashlardagi takomil ilmiy muammoga yondashuv tarzi, undagi muhim jihatlarni aniqlash va ma'lum bir to'xtamga kelishda ham namoyon bo'ldi. Olim "O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari" kitobida yozadi: "Adabiyotni davrlashtirishda ibtidoiy qarashlarga emas, balki o'ziga xos omillar, vositalar, ijtimoiy-tarixiy jarayon, falsafiy-diniy oqimlar, turli adabiy kategoriyalarga tayanish lozim bo'ladi. Har bir davr adabiyotida bularning hammasi o'ziga xos ko'rinishda paydo bo'lgan ekan, o'zbek adabiyotshunosligini davrlashtirishda "Adabiy tasavvurlar va badiiy tafakkurning shakllanish davri", "Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renessansi)". Somoniylar, saljuqiylar, g'aznaviylar va qoraxoniylar davrida islomiy madaniyat (?)", "Mumtoz didaktik badiiy ijod, dostonchilik va qissachilikning vujudga kelish davri (XI-XIII asrlar)", "Tasavvufiy talqinlar va badiiy tafakkurning yuksalish davri (XIV-XVI asrlar)" kabi hech bir asosi yo'q, mantiqsiz, pala-partish davrlashtirish fanni ortga tortish, jahon adabiyotshunosligida bugungi kunda kechayotgan bahs-u munozaralardan bexabarlik, o'zbek adabiyotining izchil rivojlanish jarayonlaridan ataylab ko'z yumish oqibatidir".

Nasimxon Rahmonov o'zbek adabiyotini davrlashtirishda Fitrat, A.N.Vesolovskiy, D.Dyurishin, S.N.Broytman, A.N.Samoylovich, V.V.Bartol'd, M.F.Ko'purilizoda kabi jahonshumul olimlarning qarashlariga tayanadi. Olimning uzoq yillik ilmiy izlanishlari natijasida har bir davrdagi adabiy tilning o'ziga xos xususiyatlari, sulolarning adabiy jarayonlardagi ishtiroki, geografik tuzilishi va chegaralari, har bir davrdagi adabiy janrlarning mohiyati, davrning ijtimoiy hayoti va shu kabi bir qator omillarga tayanilgan holda o'zbek adabiyotini davrlashtirish quyidagicha ko'rsatiladi:

1. Islomgacha bo'lgan qadimgi turkiy adabiyot:

- a) Buddaviylik oqimidagi turkiy adabiyot
- b) Moniylik oqimidagi turkiy adabiyot
- v) Shomonlik oqimidagi turkiy adabiyot

2. G'aznaviylar davri adabiyoti

3. Qoraxoniylar davri turkiy adabiyoti

4. Oltin O'rda adabiyoti

5. Temuriylar davri chig'atoy adabiyoti

6. O'rta asr xalq adabiyoti

Biz olimning bunday aniq ilmiy xulosalarini dunyoviy-falsafiy, adabiy-ilmiy qarashlarining sintezi mahsuli deb hisoblaymiz. Nasimxon Rahmonov bir qator ilmiy-nazariy tamoyillarga amal qilib keldiki, bu holat olim izlanishlarida o'ziga xoslik kasb etdi. Avvalo, u o'zining barcha tadqiqotlarida tarixiylik tamoyiliga qat'iy amal qildi. O'zining ilmiy qarashlarini tarixiy davr va jamiyatdagi atrof-muhitdan kelib chiqib ifoda etdi. Shuningdek, tadqiqotlarida xalqchilik va haqqoniylik, izchilik va aniqlik tamoyillari asosiy mezon sanaldi. Nasimxon Rahmonovning ilmiy asarlarini kuzatar ekanmiz, olimning ilmiy va ijodiy tafakkuri xalq ijodiyoti, Sharq va G'arb adabiy jaryonlari mazmun-mohiyati bilan boyitilganligini sezamiz. Olim o'z asarlarida adabiy hodisalar mazmun jihatdan izchil, aniq va puxta, ijoda jihatidan tushunarli bo'lishiga alohida ahamiyat qaratdi. Nasimxon Rahmonov o'zi amal qilgan ilmiy filologik tamoyillar uning olimlik qiyofasini belgilab berdi. U hamisha "ma'naviy boyliklarsiz xalqning o'tmishi ham kelajagi ham g'arib" ekanligini his qilib o'zbek millatini o'zining qadimgi yodgorliklari bilan yaqindan tanishib faxralanishiga yordam berib keldi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Rahmonov N. Turk xoqonligi. Toshkent. "Xalq merosi" nashriyoti, 1993.5-b.
2. Rahmonov N. Toshga bitilgan kitoblar. Toshkent. "O'zbekiston". 1983.11-b.
3. Rahmonov N. Kultigin yodnomasi poetikasi ("O'lmas obidalar" tarkibida). Toshkent. "Fan". 1989. 34-b.
4. Rahmonov N. Bitiglar olamida. Toshkent. "Fan".1990. 41-b.
5. Rahmonov N. Ko'hna bitigtoshlar. Toshkent. G'afur G'ulom nashriyoti. 1991. 11-b.
6. Sodiqov Q. "O'zbek tilining yozma uslublari tarixidan". 2010. Toshkent. "Muharrir nashriyoti". 3-bet